



SO'Z VA KUYDA YASHAGAN TARIX: DOSTON VA FOLKLOR

Raximova Sanobar Davranovna

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tuman MMTB tasarrufidagi 28- umumta'lim
maktabining musiqa fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola umumta'lim maktablarining musiqa fani o'qituvchilari uchun yordamchi manba sifatida yaratildi. Maqolada o'qituvchilarning o'quvchilarga mavzularni tushuntirish, ularda fanga oid bilim, malaka va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda, kreativlikni rivojlantirishda ko'maklashuvchi, tajribada sinab ko'rilgan interfaol usullar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq folklori, milliy madaniyat, dostonlar, musiqiy meros, ijodiy tafakkur, baxshichilik san'ati, xalq og'zaki ijodi.

KIRISH

O'zbek xalq folklori milliy madaniyat, tarix va ijtimoiy hayotning eng muhim qirralarini o'zida mujassam etgan ulkan manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi dostonlar, qo'shiqlar, ertaklar, afsonalar, maqollar, topishmoqlar, marosim qo'shiqlari va rivoyatlar - xalqning hayoti, dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari va tarixiy voqealarga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. O'zbek folklori xalqning o'tmishidan so'zlovchi, tarixiy xotirasini asrab-avaylovchi va avloddan-avlodga yetkazib beruvchi noyob boylikdir. Folklor xalqning kundalik turmushi, mehnat jarayonlari, diniy marosimlari, oila va jamiyat hayoti, urush va tinchlik davrlari bilan bog'liq qadimiy qarashlarni saqlaydi.

O'zbek folklorining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati shundaki, u o'zbek xalqining ijtimoiy, madaniy va siyosiy tarixini, milliy mentalitetini, turmush tarzini va qadriyatlarini o'rganishda muhim asos bo'ladi. O'zbek folklori milliy o'zlikni anglash, xalq madaniyatini o'rganish va milliy g'ururni shakllantirishda beباho manba hisoblanadi

ASOSIY QISM

Folklor va dostonlar – xalq og'zaki ijodining eng muhim turlaridan biri bo'lib, ular o'zbek milliy madaniyatining ajralmas qismidir. Ushbu san'at shakllari o'zida musiqa, adabiyot va tarixni mujassam etib, xalq tafakkuri va milliy o'zlikni aks ettiradi. Musiqa fani o'qituvchilari uchun bu mavzu nihoyatda muhim bo'lib, u quyidagi sabablarga ko'ra o'rganilishi lozim:

Musiqiy merosni asrash va yetkazish – O'zbek xalq musiqasi, baxshichilik san'ati va dostonchilik an'analari asrlar davomida shakllangan bo'lib, ular bugungi kunda ham yosh avlodga yetkazilishi kerak.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish – O'quvchilar doston va xalq qo'shiqlari orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.



Musiqiy tafakkur va didni shakllantirish – Milliy kuylar va dostonlar o'quvchilarni sof musiqiy did bilan tarbiyalaydi.

Nutq va kuy uyg'unligini tushuntirish – Doston va xalq musiqasida so'z va kuy bir-birini to'ldiradi, bu esa o'quvchilarning ritmik va melodik hislarini o'stiradi.

Dostonchilik va baxshichilikning musiqiy xususiyatlarini o'rganish – Folklor musiqasi doston ijrochiligi bilan bog'liq bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalq og'zaki ijodi, doston va folklor san'ati haqida bir qator muhim fikrlarni bildirgan. Ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

Folklor san'atining umumbashariy ahamiyati haqida: Prezident Mirziyoyev xalqaro baxshichilik san'ati festivalining ochilish marosimida folklor san'ati haqida shunday degan: "Insoniyat yaratgan bebabu madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum."

Folklor san'atining zamonaviy tahdidlarga duch kelayotgani haqida: Prezident globallashuv davrida "ommaviy madaniyat" va shou-biznesning salbiy ta'siri tufayli folklor san'atiga e'tibor susayib borayotganini ta'kidlab, bunday degan: "Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir."

Baxshichilik san'atining milliy madaniyatdagi o'rni haqida: Shavkat Mirziyoyev baxshichilik san'atini milliy madaniyatning o'ziga xos "tashrif qog'oziga" aylantirish zarurligini ta'kidlab, quyidagi tashabbuslarni ilgari surgan: Baxshichilik sohasida shakllangan ijodiy maktablar va "ustoz – shogird" an'analarini qayta tiklash va rivojlantirish.

Baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarining ijodiy va ilmiy faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish.

Madaniyat va san'at muassasalari qoshida baxshichilik to'garaklari tashkil etish.

Baxshi-shoirlar ijodiga keng yo'l ochib berish, to'y-tomoshalar, turli bayram va madaniy tadbirdarda ularning doimiy ishtirokini ta'minlash.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish, baxshichilik san'atini keng targ'ib etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televideniye va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Baxshilar va dostonchilikning milliy g'ururimizdagi o'rni haqida: Prezident Mirziyoyev dostonchilik va baxshichilikni milliy g'ururimiz deb atab, ularning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozimligini ta'kidlagan "Dostonchilik va baxshichilik — milliy g'ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim." Baxshilarni xalq o'tmishining aks-sadosi va bugungi kunning jarangdor ovozi sifatida ta'riflash: Prezident Mirziyoyev baxshilarni nafaqat xalq o'tmishining aks-sadosi, balki bugungi kunning ham jarangdor ovozi deb ta'riflagan: "Baxshilar nafaqat xalq o'tmishining aks-sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir."



Ushbu fikrlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalq og'zaki ijodi, doston va folklor san'atiga bo'lgan yuksak e'tiborini va ularni asrab-avaylash hamda rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yakunda aytish mumkinki, folklor va dostonlarni o'rghanish – bu milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani asrab-avaylash va kelajak avlodga milliy madaniyatimizni to'laqonli yetkazishning muhim yo'llaridan biridir. Musical-folklor an'analarini boyitish va zamonaviy metodlar bilan targ'ib etish kelajak avlodning ma'naviy va madaniy kamolotiga xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

- Xalq og'zaki ijodini targ'ib qilish – Maktab va o'quv dasturlarida folklor va dostonlarga keng o'rin ajratish, ayniqsa, musiqiy ijrochilik orqali ularni yanada jonlantirish.
- Musiqiy hamrohligi bilan dostonlarni o'rghanish – Baxshilar ijrosidagi dostonlarni tinglash, o'quvchilarga milliy cholg'ular yordamida ularni ifodali aytish imkoniyatini yaratish.
- Folklor va dostonlarni zamonaviy formatda yetkazish – Bolalar va yoshlar orasida doston va xalq qo'shiqlarini audiokitoblar, multimedia loyihalari, animatsion filmlar orqali ommalashtirish.
- Baxshichilik san'atini rivojlantirish – Maktab va madaniyat markazlarida baxshichilik to'garaklari tashkil qilish, yosh avlodga milliy musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish.
- Ota-onalar va ustozlarning faolligi – Ota-onalar va o'qituvchilar folklor asarlarini bolalar bilan birga o'qib, muhokama qilib borishlari, ularning mazmun-mohiyatini tushuntirishlari muhim.
- Dostonlar orqali vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish – O'quvchilar orasida Alpomish, Go'ro'g'li, Ravshan, Kuntug'mish kabi milliy qahramonlar haqida bilimlarni keng yoyish, bu orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Mirziyoyev, Sh. M. (2019). Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida. Toshkent: O'zbekiston.
- 2.Qodirov, M. (2020). O'zbek xalq eposi va uning tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya.
- 3.Jumaxo'jayev, A. (2018). Baxshichilik san'ati va dostonchilik an'analari. Toshkent: Sharq.
- 4.Rahmonov, M. (2015). O'zbek xalq dostonlari poetikasi. Toshkent: Akademnashr.
- 5.G'afurov, N. (2017). O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.



6.Sodiqova, D. (2014). O'zbek folklori va uning janrlari. Toshkent: Fan va turmush.

7.To'xtasinov, O. (2016). Dostonchilik san'atining taraqqiyoti. Buxoro: Buxoro nashriyoti.

Internet manbalari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti: www.president.uz (<https://www.president.uz/>)

O'zbekiston Milliy Kutubxonasi: www.natlib.uz (<https://www.natlib.uz/>)

Madaniyat va san'at portalı: www.sanatat.uz (<https://www.sanatat.uz/>)